

UDC: 343.3

ORCID: 0000-0002-5008-7533

OLIV TA'LIM SOHASIDA KORRUPSIYAVIY HUQUQBUZARLIK SHAKLLARI, TASNIFI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qo'chqorov Zafarjon Qayumjon o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi,
e-mail: jasperlawyer@mail.ru

Annotatsiya. So'nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga qarshi murossasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli choralar ko'rilmogda. Davlat tomonidan korrupsiyaga qarshi yo'naltirilgan barcha islohotlar fuqarolarning huquq va manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilmogda. Ayniqsa, ta'lim sohasida korrupsiyaga qarshi jadal faoliyat olib borish orqali mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmogda. Zamonaviy davlat boshqaruvi rivojlanayotgan va xususiy sektorda kasb turlari shiddat bilan ko'payayotgan bir vaziyatda malakali kadrlarga bo'lgan talabning ortishi va ijobiy natijalarga erishishda yetuk kadrlar xizmatidan foydalanish hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgani oliy ta'lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish dolzarbligini oshirmogda. Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida ilmiy adabiyotlar yetishmasligi va ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmaganligi sababli sohadagi korrupsiya bilan bog'liq nazariy tushunchalarga alohida e'tibor qaratish lozim. Maqolada oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarlik "shakllari", "tasnifi" va o'ziga xos "xususiyatlari" tushunchalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan bo'lib, ushbu tushunchalarga ta'riflar berilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, korrupsiyaviy huquqbuzarlik, nazariy tushunchalar, korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakllari, tasnifi, xususiyatlari.

ФОРМЫ, КЛАССИФИКАЦИЯ И ХАРАКТЕРИСТИКА КОРРУПЦИОННЫХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Кучкаров Зафаржон Каюмжон угли,
самостоятельный соискатель
Академии Генеральной прокуратуры
Республики Узбекистан

Аннотация. В последние годы в стране проводятся значительные организационные и правовые реформы в борьбе с коррупцией. Систематически принимаются меры по повышению правосознания и культуры населения, формированию бескомпромиссного отношения к коррупции в обществе. Все антикоррупционные государственные реформы осуществляются в интересах граждан. Особое внимание уделяется подготовке независимых, конкурентоспособных кадров с высокими моральными и этическими качествами путем интенсивной антикоррупционной деятельности в сфере образования. В условиях быстрого увеличения количества профессий в современном государственном управлении и частном секторе растущий спрос на квалифицированный и зрелый персонал и его использование имеют решающее значение для достижения положительных результатов, что повышает актуальность борьбы с коррупцией в высшем образовании. Из-за отсутствия научной литературы по борьбе с коррупцией в высшем образовании и отсутствия исследований в этой области особое внимание следует уделять теоретическим концепциям коррупции в этой области. Также приводится научный анализ понятий формы, классификации и специфических признаков коррупционных правонарушений в сфере высшего образования, даны определения этих понятий.

Ключевые слова: высшее образование, коррупционное правонарушение, теоретические понятия, формы, классификация, характеристики коррупционного правонарушения.

FORMS, CLASSIFICATION, AND CHARACTERISTICS OF CORRUPTION OFFENSES IN HIGHER EDUCATION

Kuchkarov Zafarjon Kayumjon ugli,

Ph.D. candidate of the Academy of
the Prosecutor General's office of the Republic of Uzbekistan

Abstract. In recent years, the country has undergone significant organizational and legal reforms in the fight against corruption. Measures are being systematically taken to raise the legal awareness and culture of the population, to form an uncompromising attitude towards corruption in society. All anti-corruption reforms carried out by the state are carried out in the interests of citizens. Particular attention is paid to the training of independent, competitive personnel with high moral and ethical qualities through intensive anti-corruption activities in the field of education. With the rapid growth of professions in modern public administration and the private sector, the growing demand for qualified personnel and the use of mature personnel are critical to achieving positive results, which increases the relevance of the fight against corruption in higher education. Due to the lack of scientific literature on combating corruption in higher education and the lack of research in this area, special attention should be paid to theoretical concepts of corruption in this area. The article provides a scientific analysis of the concepts of "forms", "classification" and specific "signs" of corruption offenses in the field of higher education and defines these concepts.

Keywords: higher education, corruption offense, theoretical concepts, forms, classification, features of corruption offenses.

Kirish

Korrupsiyadan xolijamiyat va davlatni yaratish mamlakat taraqqiyotining mustahkam kafolati bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 7-dekabr kuni Konstitutsiyamizning 26 yilligiga bag'ishlangan marosimda so'zlagan nutqida "Korrupsiya bilan hech qachon maqsadimizga erisha olmaymiz" [1], deb ta'kidlagan edilar.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda oliy ta'lim muhim ahamiyatga ega soha sifatida ajralib tura-di, chunki oliy ta'lim mehnat faoliyatiga yo'llan-ma beruvchi yakuniy uzluksiz ta'lim bosqichi hisoblanadi. Mamlakatda oliy ma'lumotga ega kadrlarning yetishmasligi, alohida mutaxassislik talab qiluvchi yangi davlat organlarining tashkil etilishi va uning samarali faoliyatini yo'lga qo'yish, rahbarlik lavozimlarining bo'sh qolib ketishi hamda malakali rahbarlarning bir tashkilotdan boshqasiga juda tez o'tkazilishi kabi muammolarni keltirib chiqaradi.

Ushbu muammolarni hal etishga davlat rahbari tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda, xususan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomalarida 2020-yilda oliy ta'limga qabul parametrlari 2016-yilga nisbatan 2,5 barobarga o'sganligini,

yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 25 foizga ortganligini ta'kidlagan holda, oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni-ni kamida 25 foizga oshirishni belgilab berdilar [2]. Bugungi kunda ushbu ko'zlangan natijalarga erishildi.

Biroq ushbu ko'rsatkich Qozog'istonda 54 foiz, Qirg'izistonda 41 foizni tashkil etsa [3, 82-b.], Yaponiya, Kanada, Fransiya, Shvetsiya, AQSH davlatlarida, Buyuk Britaniya, Italiya, Koreya Respublikasida deyarli barcha bitiruvchilar oliy ta'limga qamrab olingan [4].

Butun dunyoda va mamlakatimizda oliy ta'lim olishga bo'lgan intilish juda yuqori va bu boradagi kuchli raqobat korrupsiyaviy holatlar kelib chiqish ehtimolini oshirmoqda.

Hozirda dunyoda 25 mingdan ortiq oliy ta'lim muassasasi mavjud bo'lib, [5] ularda 250 million atrofida talabalar tahsil olishmoqda. Talabalar soni yildan-yilga ortib borayotgan bo'lib, Melburn qirol-lik texnologiyalari universiteti tadqiqotchisi Angel Kalderon izlanishlariga asosan, talabalar soni 2030-yil 380 mln, 2035-yilda 472 mln, 2040-yilda 594 mln nafarga yetishi ko'rsatilmoqda [6].

Material va metodlar

Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish, sohada mavjud muam-

mo va kamchiliklarni bartaraf etishda ilmiy tadqiqotlar hamda ularning ijobiy natijalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz doirasida korrupsiyaga qarshi kurashish, xususan, oliy ta'lim sohasida korrupsiyaning oldini olish yangi va o'rganilmagan yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi asoslarga tayangan holda, oliy ta'lim sohasida sodir etilgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni nazariy jihatdan o'rganib, sohadagi huquqbuzarlik "shakllari", "tasnifi" va ularning o'ziga xos "xususiyatlari" tushunchalariga alohida to'xtalish maqsadga muvofiq.

Tadqiq etilayotgan mavzuni maqolada yoritishda qiyosiy-huquqiy, tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, mantiqiy, aniq sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullar qo'llanildi.

Maqolada oliy ta'lim sohasida sodir etilgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning nazariy jihatlarini hisoblangan huquqbuzarlik "shakllari", "tasnifi" va ularning o'ziga xos "xususiyatlari" kabi asosiy nazariy tushunchalar tadqiqot obyekti sifatida o'rganildi.

Tadqiqot natijalari va tahlili

Oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar turli xil shakllarda va ko'rinishlarda sodir etiladi.

Shakl tushunchasiga turli yondashuvlar mavjud. Masalan, S.Ojegov [7, 2148-b] shakl mazmunning ajralmas qismi, uning mavjudligini ta'minlovchi, ifodalanishiga xizmat qiluvchi tushuncha, deb ta'riflaydi. D.Ushakov esa shakl bu tashqi ko'rinish, obyektning tashqi ifodalanishi deb hisoblaydi [8, 2157-b].

Korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakllari o'zining shakliy xususiyatlari bilan huquqbuzarliklarni bir-biridan farqlash va ajratishda mezon sifatida xizmat qiladi.

Shunga ko'ra, oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakliga oliy ta'lim sohasida sodir etiladigan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning turli ko'rinishlari sifatida ta'rif berish mumkin.

K.Kuzina oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning quyidagi shakllarini ko'rsatib o'tgan: davlatga qarashli oliy ta'lim muassasasida (bundan buyon matnda OTM shaklida keltiriladi) budjet mablag'larining talon-toroj qilinishi; OTMni akkreditatsiya qilish uchun

pora berish; oliy ta'limga oid diplom va boshqa hujjatlarni noqonuniy usulda olish; tanlov natijasini hisobga olmagan holda OTMni ro'yxatdan o'tkazish; talabalarni baholash jarayonida o'qituvchilar tomonidan korrupsiyaviy tovlamachilik sodir etish; o'qishni istamagan talabalarning o'qituvchilarga korrupsiyaviy bosim qilishi; hamkasblar va rahbariyatning mas'ul o'qituvchilarga talabalarni qo'llab-quvvatlash masalasida korrupsiyaviy bosimlar o'tkazishi [9, 15-b].

Fikrimizcha, sohadagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning quyidagi shakllarini mamlakatimiz doirasida ko'rish mumkin:

- OTMga kirish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;
- talabalarni baholash jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;
- bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;
- talabalarning davomatini yashirish maqsadida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;
- o'qish joyini ko'chirish, o'qish yo'nalishini o'zgartirish hamda o'qishga qayta tiklash jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;
- ilmiy-tadqiqot jarayonlarida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;
- budjet mablag'larini talon-toroj qilish;
- rahbar xodimlar va hamkasblarning mas'ul o'qituvchilarga korrupsiyaviy bosim o'tkazishi;
- OTM xodimlaridan korrupsiyaviy maqsadlarda noqonuniy pul mablag'larini yig'ish;
- talabalarga kitoblar va boshqa o'quv materiallarini majburiy sotish hamda buning uchun ularni turli jabhalarda qo'llash;
- OTMni bitirganligi to'g'risida soxta diplom yoki boshqa hujjatlar berish;
- kadrlarni lavozimga tayinlash, ularni ishdan bo'shatish, moliyaviy rag'batlantirish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;
- OTMga davlat xaridlarini amalga oshirishda korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;
- talabalarni yotoq joyi bilan ta'minlash jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish va boshqalar.

Respublika oliy ta'lim sohasida 2019-2020-yillar va 2021-yilning 6 oyi davomida sodir etilgan korrupsiyaviy jinoyatlarni tahlil qilsak, ushbu davrda 145 ta korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etilgan va korrupsiyaviy jinoyatlarning 112 tasi

o'qishga kiritish, 12 tasi o'qish joyini ko'chirish, o'qish yo'nalishini o'zgartirish hamda o'qishga qayta tiklash, 9 tasi mulkni talon-toraj qilish, 6 tasi oliy ta'lim muassasasiga ishga kirish, 3 tasi baholash, 2 tasi salbiy davomatni yashirish, 1 tasi bitiruv malakaviy ishni yozish jarayonlari bilan bog'liq [10].

Raqamlar va amaliy misollar pora evaziga o'qishga kiritib qo'yish, o'qish joyini ko'chirish, o'qish yo'nalishini o'zgartirish hamda o'qishga qayta tiklash, budget mablag'larini talon-toraj qilish kabi korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakllari keng tarqalganligini ko'rsatmoqda.

OTMga o'qishga kiritish bilan bog'liq korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakli jahon dajasidagi dolzarb huquqbuzarliklardan biri hisoblanadi va xorijiy davlatlarda sodir etilgan keng ko'lamdagi amaliy misollar buni tasdiqlaydi.

Misol uchun, 2019-yil boshlarida jahon omma-viy axborot vositalari bergan xabarlariga asosan, AQShda o'qishga qabul qilish bo'yicha maslahatchi William Rick Singer pora evaziga kirish imtihonlari test natijalarini sun'iy ko'tarish bilan bog'liq korrupsiyaviy jinoyat sodir etgan.

Ushbu shaxsga 2011-2018-yillar davomida 32 nafar ota-onalar farzandlarini o'qishga kiritish uchun 25 mln AQSH dollari miqdorida pora berganligi aniqlangan. William Rick Singer tergov davomida o'tgan bir necha yillar davomida 750 yaqin oilalarning farzandlariga korrupsiyaviy yo'llar bilan o'qishga kiritishga yordam berganligini tan olgan [11, 9-b.].

Tahlillar so'nggi yillarda mamlakatimizda xorijiy OTMlar bilan bog'liq korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etilishi ko'p kuzatilmoqda, jumladan, oxirgi ikki yarim yilda sodir etilgan korrupsiyaviy jinoyatlarning 16 tasi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan bog'liq [10].

YUNESKoning statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2017-yilda O'zbekistondan chetga o'qishga ketgan talabalar soni 34 990 nafarni tashkil etgan [12].

Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar shakllarini o'rganish va tahlil qilish sohadagi dolzarb huquqbuzarlik shakllarini aniqlashga, ularni bartaraf etish bo'yicha zarur choralar ko'rishga imkoniyat yaratadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, oliy ta'lim sohasida sodir etiladigan huquqbuzarliklar shakllari ro'yxatini qat'iy belgilab bo'lmaydi, chunki huquqbuzarlik sohaning har qanday

bosqichida va turli xil shaklda sodir etilishi mumkin.

Fikrimizcha, barcha sohalarda bo'lgani kabi oliy ta'lim sohasida ham korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakllari makon va zamon bilan birgalikda o'zgarib boradi. Bu o'zgarishlar oliy ta'lim sohasida o'rnatilgan qonuniy tartiblar, texnik rivojlantirish, ta'lim berish usullari va boshqa omillar bilan bog'liq.

Masalan, yaqin tarixda mas'ul shaxslar OTMga kirish imtihonlarida pora evaziga abituriyentlarga oldindan kelishilgan savollarni bergan holda, korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etgan bo'lsa, bugungi kunda kirish imtihonlari test shakliga o'tkazilgani sababli ular pul evaziga uyali aloqa vositalarini imtihon xonalariga olib kirish shaklidagi korrupsiyaviy huquqbuzarlik ommalashgan.

Oliy ta'lim sohasida sodir etilayotgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni turli asoslarga ko'ra tasniflash mumkin. Shuning uchun oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni tasniflashda turli xil yondashuvlar mavjud.

Jumladan, A.Osipian oliy ta'lim sohasida sodir etilayotgan korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakllarini turli asoslar bo'yicha tasniflaydi. Xususan, u huquqbuzarliklarning sodir etilish usuliga ko'ra: poraxo'rlik, nepotizm, favorotizm, firibgarlik, moddiy boyliklarni talon-toraj qilish, plagiat, kasbiy odob-axloq qoidalarini buzish, shartnomani buzish; sodir etilish sohasiga ko'ra: OTMga qabul qilish, ta'lim berish, bitirish, akkreditatsiya va litsenziyalash, professor-o'qituvchilarni tanlab olish va rag'batlantirish, tadqiqot olib borish, grantlar olish; subyektlar o'rtasidagi munosabatlarga ko'ra: davlat-universitet, tadbirkor-universitet, fakultet-talaba, fakultet-boshqaruv, davlat-talaba o'rtasida sodir etiladigan huquqbuzarlik turlariga tasniflaydi [13, 9-10-b.].

Shuningdek, u oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni alohida muhim sohalarda bo'yicha tasniflaydi, ularni ta'lim berish, xizmat ko'rsatish va boshqaruv sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga bo'ladi. Talabalarning yakuniy ishini moddiy manfaatdorlik evaziga ijobiy baholashni ta'lim berish, talabaga moddiy manfaatdorlik evaziga yotoqxonaga berishni xizmat ko'rsatish, pora evaziga rektor lavozimiga tayinlashni boshqaruv sohasidagi korrupsiyaga misol sifatida keltiradi [14, 25-26-b.].

A.Osipian oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni tasniflashda sohadagi asosiy huquqbuzarliklarni qamrab olishga harakat qilgan bo'lsa-da, ayrim mezonlarga e'tibor qaratmagan. Misol uchun, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni hudud, vaqt, tarqalish ko'lami mezonlari asosida tasniflamagan.

Korrupsiyaning oldini olish uchun sohada sodir etilayotgan huquqbuzarliklarni hudud, vaqt va tarqalish ko'lami bo'yicha tasniflash muhim ahamiyatga ega.

Zero, ayrim hududda sodir etilgan huquqbuzarlik boshqa hududlarda uchramasligi yoki o'ziga xos usulda sodir etilishi mumkin.

Jumladan, oliy ta'lim sohasida so'nggi ikki yarim yil davomida 145 ta korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etilgan bo'lib, ushbu jinoyatlarning 31 tasi Toshkent shahri, 22 tasi Buxoro viloyati, 12 tasi Namangan viloyati hisobiga to'g'ri kelmoqda. Ko'rish mumkinki, uchta viloyat hududida sodir etilgan jinoyatlar soni umumiy jinoyatlarning 44,8 foizini tashkil qilmoqda [10]. Toshkent shahrida korrupsiyaviy jinoyatlar ko'rsatkichi yuqoriligini hududda boshqa viloyatlarga nisbatan ko'p (61 ta) [15] OTM joylashganligi bilan izohlash mumkin.

Ayrim korrupsiyaviy huquqbuzarliklar davriy ravishda dolzarbligini yo'qotishi yoki ayrimlari yangi korrupsiyaviy huquqbuzarlik sifatida baholanishi mumkin.

Masalan, o'tgan asrning 80-90-yillarida oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirish imtihonlariga yozma shakldagi materiallar (shpargalka) olib kirish holatlari ko'p uchragan bo'lsa, so'ngi 10 yillikda kirish imtihonlariga uyali aloqa vositalarini olib kirish urfga aylandi.

Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar tarqalish ko'lami bo'yicha tizimli va kam sodir etiluvchi huquqbuzarliklarga bo'linadi va korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olishda muhimlarini tanlab olishda ahamiyatli hisoblanadi.

Misol uchun, OTMga o'qishga kiritish bilan bog'liq korrupsiyaviy huquqbuzarlikni sohadagi tizimli korrupsiyaviy huquqbuzarlik sifatida baholash mumkin. Zero, oliy ta'lim sohasida oxirgi ikki yarim yil davomida 145 ta korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etilgan bo'lib, ularning 112 tasi yoki 77,2 foizi oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kiritish bilan bog'liq korrupsiyaviy jinoyatlar hisoblanadi.

Tahlillar OTMga o'qishga kiritish bilan bog'liq korrupsiyaviy jinoyatlarda pora predmeti 500 AQSH dollaridan 10 ming AQSH dollarigacha bo'lgan miqdorni ko'rsatmoqda [10].

Shuningdek, sohalar mezon bo'yicha tasniflashda ta'lim berish, xizmat ko'rsatish va boshqaruv kabi muhim bosqichlarni ko'rsatib bera olgan bo'lsa-da, mehnat munosabatlari, davlat xaridlari, kirish imtihonlari, nazorat bosqichlaridagi huquqbuzarliklarga e'tibor qaratilmagan.

N.Rumyanseva oliy ta'limdagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni quyidagicha tasniflaydi:

1) ta'limdagi maxsus korrupsiya:

- akademik korrupsiya: talaba-fakultet va talaba-boshqaruv xodimi o'rtasidagi korrupsiya;
- xizmat ko'rsatishdagi korrupsiya: talaba-xizmat ko'rsatuvchi xodim va talaba-boshqaruv xodimi o'rtasidagi korrupsiya;

2) boshqaruvdagi korrupsiya [16, 81-92-b.].

Tadqiqotchi oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni tasniflashda huquqbuzarliklarning xususiyatiga e'tibor qaratgan va ta'lim bilan bog'liq korrupsiyaning o'ziga xos alohida turi ekanligiga urg'u bergan. Boshqaruv sohasida sodir etilishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni akademik korrupsiyadan alohida ajratib ko'rsatgan. Biroq tasniflash jarayonida o'ziga xos yondashuv mavjud bo'lsa-da, sohadagi huquqbuzarlik shakllari barcha mezonlar asosida to'liq qamrab olinmagan.

Fikrimizcha, barcha sohalarida bo'lgani kabi oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni tasniflashda, birinchi navbatda, ularni tasniflash mezonlarini to'liq shakllantirib olish kerak.

Jumladan, oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etish usuliga ko'ra, poraxo'rlik, nepotizm, favorotizm, firibgarlik, moddiy boyliklarni talon-toroj qilish, plagiat va boshqa turdagi huquqbuzarliklarga bo'linadi.

Misol uchun, talabaga pora evaziga a'lo baho qo'yib berish poraxo'rlik usulida sodir etilgan korrupsiyaviy huquqbuzarlik hisoblansa, OTMga ajratilgan budjet mablag'larini o'zlashtirish talon-toroj qilish usulida sodir etilgan huquqbuzarlik toifasiga kiradi.

Shuningdek, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarda qatnashgan subyektlar doirasiga qarab, talaba va o'qituvchi, talaba va boshqaruv xodimlari (rektor, prorektor, dekan), talaba va xizmat ko'rsatuv-

chi xodimlar (yotoqxona boshlig'i, kutubxonachi) o'rtasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga bo'linadi.

Oliy ta'lim sohasida sodir etiladigan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar talabalar, guruh yetakchilari, o'qituvchilar, rahbarlar va boshqa shaxslar tashabbusi bilan sodir etilishi mumkin. Siyosiy tadqiqotchi Albina Yunning o'rganish natijalariga ko'ra, mamlakatimiz OTMda yuzaga kelayotgan korrupsiyaviy kelishuvlarning 25 % talabalar, 24 % o'qituvchilar, 10 % guruh yetakchilari, 3 % xodimlar, 38 % boshqa shaxslar tashabbusi bilan sodir etilmoqda [17, 12-b.].

Shuningdek, 2019-2020-yillar va 2021-yilning 6 oyi davomida oliy ta'lim sohasida sodir etilgan 145 ta korrupsiyaviy jinoyatlar bo'yicha 197 nafar shaxslar javobgarlikka tortilgan bo'lib, ularning 149 nafari oliy ta'lim sohasiga mehnat va o'qish faoliyatiga aloqador bo'lgan shaxslar hisoblansa, 48 nafari umuman aloqasi bo'lmagan shaxslar hisoblanadi.

Xususan, oliy ta'limga aloqador 149 nafar shaxslarning 82 nafari akademik doira vakillari (professor, dotsent, o'qituvchi), 32 nafari boshqaruv yoki xizmat ko'rsatuvchi xodimlar, 25 nafari talabalar, 10 nafari rahbarlar toifasiga kiradi. Javobgarlikka tortilgan shaxslarning 41,6 foizi deyarli yarmi oliy ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatuvchi akademik doira vakillari hisobiga to'g'ri kelmoqda [10].

Yoki oliy ta'lim sohasining ichki bosqichlariga ko'ra, ta'lim berish, xizmat ko'rsatish va boshqaruv sohalaridagi korrupsiya kabi turlarga bo'linadi.

Masalan, OTMga rektor lavozimiga tayinlash uchun Oliy ta'lim vazirligida yuqori lavozimda ishlovchi mansabdor shaxsga pora berish boshqaruv bosqichidagi korrupsiya toifasiga kiradi.

Korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning tarqalish hududiga qarab, global, davlat yoki mintaqa bo'yicha dolzarb korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga tasniflanadi.

Jumladan, Italiyada mafiya va OTM o'rtasidagi korrupsiyaviy munosabatlar mavjudligi sababli tadqiqotchilar tomonidan bu holat sohadagi yangi korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakli sifatida baholandi. AQShda plagiat va talabalar uddaburonligi keng tarqalgan bo'lsa, Rossiya Federatsiyasida OTMga kirish va o'qishni tamomlash jarayonidagi poraxo'rlik dolzarb shakllar hisoblanadi. Buyuk

Britaniyada OTMni akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq korrupsiya muhim ahamiyat kasb etsa, Xitoyda o'qishni bitirganligi to'g'risida soxta sertifikat berish keng tarqalgan. Birgina AQShda xususiy oliy ta'lim rivojlanishi natijasida universitetlarning davlatdan qarzlari 1.7 mln dollardan 17 mln dollarga ortdi va bu holat mamlakatda turli firibgarliklarni sodir etishga olib kelmoqda [18, -23-b.].

Xuddi shu kabi korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakllarini OTM tashkiliy-huquqiy shakliga qarab, davlat, xususiy va xorijiy OTMdagi huquqbuzarliklarga ajratish mumkin.

Fikrimizcha, korrupsiyaviy huquqbuzarlik korrupsiyaviy manfaatni kim ko'rishiga qarab, individual va institutsional ko'rinishdagi korrupsiyaviy harakatlar bo'lishi mumkin. Individual ko'rinishdagi korrupsiyaviy harakatlar natijasida alohida yakka shaxs yoki shaxslar manfaatdor bo'ladi. Misol uchun, pora evaziga OTMga kiritib qo'yish, talabaga pul evaziga ijobiy baho qo'yish. Institutsional ko'rinishdagi korrupsiyaviy harakatlar natijasida alohida shaxs yoki shaxslar emas, balki ma'lum soha vakillari yoxud ma'lum tuzilma manfaatdor bo'ladi. Masalan, OTMni pora evaziga noqonuniy ravishda davlat ro'yxatidan o'tkazish.

Shuningdek, korrupsiyaviy harakatlarni qonuniyligiga ko'ra, qonuniy va noqonuniy faoliyat asosida amalga oshiriladigan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga ajratish mumkin. Qonuniy faoliyat asosida amalga oshiriladigan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga xodimlarning xizmat vazifasiga subyektiv yondashuvi, ya'ni o'qituvchi tomonidan do'sti yoki yuqori amaldorning bilimsiz farzandiga ijobiy baho qo'yishini misol qilish mumkin. Noqonuniy faoliyat asosida amalga oshiriladigan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga xodimlarni javobgarlikka tortishga sabab bo'ladigan harakat, ya'ni talabani pora evaziga bir ta'lim yo'nalishidan boshqa ta'lim yo'nalishiga ko'chirishni keltirish mumkin.

Bundan tashqari, oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni, xususiyatiga ko'ra, umumiy va maxsus korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga tasniflash mumkin.

Xususan, OTMga o'qishga kirish yoki yakuniy chorakda a'lo baho olish uchun pora berish faqat oliy ta'lim sohasiga xos bo'lgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar hisoblanadi va ushbu huquqbuzarliklarga

zarliklar boshqa sohalarda xuddi shu ko'rinishda takrorlanmaydi. Ko'pchilik tadqiqotchilar oliy ta'limdagi maxsus korrupsiyani akademik korrupsiya sifatida baholaydi. OTMga ishga olish uchun pora talab qilish yoki budjet mablag'larini talon-toroj qilish kabi huquqbuzarliklar boshqa sohalardagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar bilan o'xshash bo'ladi.

Oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar vaqt bo'yicha dolzarbligiga qarab, dolzarb yoki ahamiyatsiz korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga bo'linadi.

Masalan, korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakllari amalga oshirilayotgan islohotlar bilan birga vujudga kelishini xalqaro tajribadan ko'rish mumkin. Masalan, xususiy oliy ta'lim rivojlangan AQSH va Yevropa mamlakatlarida OTMni davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonida korrupsiyaviy holatlar ko'p uchrasa, mamlakatimizda xususiy OTM endi rivojlanayotganligini inobatga olgan holda, mazkur huquqbuzarlik yaqin kelajakda dolzarb shaklga aylanishi mumkin.

Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etishda korrupsiyaviy huquqbuzarlik xususiyatlarini ko'rib chiqish muhim o'rin tutadi.

Oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar quyidagi xususiyatlarga ega:

Birinchidan, munosabat subyektlari soni ko'pligi va sohada korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishi yuqoriligi.

Jumladan, 2019-yil holatiga respublikada 424,9 ming nafar bakalavriyat, 13 ming nafar magistr talabalar ta'lim olishi, 30.559 nafar professor-o'qituvchilar mehnat qilishi buning yorqin misoli bo'ladi [19]. Mazkur subyektlarning deyarli har kuni o'zaro munosabatga kirishishi va bu jarayonda inson omilining yuqoriligi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, talabalarni baholash jarayonidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning ko'zga ko'rinmasligi, munosabat subyektlari va jamoatchilik tomonidan bu turdagi harakatlarni ahamiyatsiz huquqbuzarlik sifatida baholashi.

Xususan, talabani pul berib yoki tanish mansabdorlar orqali ijobiy baho olishi o'qituvchi va talabalar tomonidan jinoiy huquqbuzarlik sifatida qabul qilinmaydi. Mazkur mayda korrupsiyaviy harakatlarning o'qish va ish faoliyatida munta-

zam sodir etilishi ularni o'qituvchi va talabalar uchun oddiy holga aylantiradi.

Uchinchidan, oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar davriy asosda sodir etilish xususiyatga ega.

Jumladan, har yili OTMga kirish imtihonlarining o'tkazilishi, yilda ikki marta oraliq, yakuniy imtihonlarining o'tkazilishi va bitirish kurslarida davlat imtihonlari, bitiruv malakaviy ishlarining topshirilishi holatlarini keltirishimiz mumkin. Davriy asosda korrupsiyaviy o'choqlarning yuzaga kelishi huquqbuzarlar uchun uzoq va puxta tayyorgarliklar ko'rish imkoniyatini yaratadi hamda bu sohadagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning yuqori bo'lishiga olib keladi.

To'rtinchidan, abituriyent va talabalar uchun oliy ma'lumotga ega bo'lish katta hayot yo'lidagi hal qiluvchi nuqta, ko'p ehtimol bilan uning kelajagi uchun ko'prik bo'lishi alohida bir xususiyat. Ushbu muhim hayot bosqichida ijobiy natijaga qonuniy yo'l bilan erisha olmagan shaxslar korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etishga urinadi.

Beshinchidan, oliy ta'lim sohasidagi korrupsiya bo'lajak kadrlarda korrupsiyaviy illatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Masalan, talabani o'qituvchi bilan to'g'ridan-to'g'ri korrupsiyaviy munosabatlarga kirishishi uning savodsiz kadr bo'lishiga olib kelishi bilan bir qatorda, kelgusi ish faoliyatida ham korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etishga o'rgatib boradi. Zero, sohada korrupsiyaning avj olishi korrupsiyaga moyil bo'lajak kadrlar uchun tajriba maydoni bo'lib xizmat qiladi.

Oltinchidan, oliy ta'lim sohasidagi korrupsiya boshqa sohalarga ham korrupsiyaning keng tarqalishiga xizmat qiladi.

Xususan, OTMga pora berish yo'li bilan kirgan va uni korrupsiyaviy yo'llar bilan tugatgan talaba davlat xizmatining turli sohaslariga, jumladan, sog'liqni saqlash, qurilish, huquqni muhofaza qilish va boshqa sohalarda mehnat faoliyatini davom ettiradi va bu, o'z navbatida, ushbu davlat xizmati sohaslarida korrupsiyaning keng tarqalishiga olib keladi.

Xulosalar

Xulosa sifatida oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning nazariy asoslarini o'rganish natijalariga ko'ra, quyidagilarni ta'kidlab o'tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

– oliy ta'lim sohasida sodir etiladigan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar azaldan mavjud korrup-

siyaviy huquqbuzarliklarning bir shakli bo'lsa-da, tor doirada tadqiq etilmagan;

– oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar "shakllari", ularning "tasnifi" va "xususiyatlari" tadqiqot mavzusining nazariy asoslari hisoblanadi;

– oliy ta'lim sohasida sodir etiladigan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar shakllarini o'rganish orqali sohadagi dolzarb huquqbuzarliklarni belgilab olish mumkin;

– oliy ta'lim sohasida sodir etiladigan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni tasniflash ularni boshqa sohadagi huquqbuzarlik shakllaridan farqlash imkoniyatini beradi;

– oliy ta'lim sohasida sodir etiladigan korrupsiyaviy huquqbuzarlik xususiyatlarini tadqiq qilish sohadagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning kelib chiqish sabab va omillarini aniqlashda fundamental asos bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan murojaatnomasi, 2020-yil 29-dekabr [Address to the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, December 29, 2020]. Available at: <https://president.uz/>.
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi, 2018-yil 7-dekabr []. Available at: <http://gazeta.uz/>.
3. Oliy ta'lim: muammo va yechimlar, respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqola va tezislari to'plami [Higher education: problems and solutions, collection of scientific articles and abstracts of the Republican scientific-practical conference]. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti – Tashkent State University of Economics, Tashkent, 2020, p. 82. Available at: <https://tsue.scienceweb.uz/>.
4. Oliy ta'lim muassasangizda korrupsiya bormi? [Is there corruption in your higher education institution?]. Available at: <https://uzbekistan.ureport.in/story/778/>.
5. How many universities exist in the world? Available at: <https://truowl.com/university/how-many-universities-exist-in-the-world/>.
6. Angel Calderon's thesis of massification of higher education revisited. Available at: http://cdn02.pucp.edu.pe/academic/2018/08/23165810/na_mass_revis_230818.pdf/.
7. Ozhegov S.I. Tolkovyj slovar' [Dictionary]. 2008-2009, 2148 p. Available at: <http://slovarozhegova.ru/>.
8. Ushakov D.N. Tolkovyj slovar' [Dictionary]. 2008-2009, 2157 p. Available at: <http://ushakovdictionary.ru/>.
9. Knaust I.S. Korrupcija uchrezhdenijah vysshego professional'nogo obrazovanija. Magisterskaja dissertatsiya [Corruption in institutions of higher professional education. Master's dissertation]. Tomsk, 2016, p. 15. Available at: <http://ui.tsu.ru/wp-content/uploads/2016/05/%D0%BA%D0%BD%D0%B0%D1%83%D1%81.pdf/>.
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, 20.08.2021-yil, 03-23-674-21-sonli xat [Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 20.08.2021, letter No. 03-23-674-21].
11. Kirya M. Corruption in universities Paths to integrity in the higher education subsector. 2019, p. 9. Available at: <https://www.u4.no/publications/corruption-in-universities-paths-to-integrity-in-the-higher-education-subsector.pdf/>.
12. O'zbekistonda oliy ta'limni isloh qilish: muammolar va takliflar [Higher Education Reform in Uzbekistan: Challenges and Suggestions]. Available at: <https://www.xabar.uz/talim/ozbekistonda-oliy-talimni-isloh-qilish-muammolar-va-takliflar/>.
13. Osipian A. Higher Education Corruption in the World Media: Prevalence, Patterns, and Forms. 32nd Annual Conference of the Association for the Study of Higher Education, Louisville, KY, November 2007, pp. 9-10. Available at: <https://files.eric.ed.gov/fulltext/ED499687.pdf/>.
14. Osipian A. Corruption in higher education: for the degree of Doctor of philosophy. 2013, pp. 25-26. Available at: https://www.researchgate.net/publication/251545877_Economics_of_corruption_in_doctoral_education_The_dissertations_market/.
15. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi [Ministry of Higher and Secondary Special Education of the Republic of Uzbekistan]. Available at: <https://www.edu.uz/uz/>.

16. Rummyantseva N. Taxonomy of Corruption in Higher Education. Peabody Journal of Education, Newly Emerging Global Issues, 2005, pp. 81-92. Available at: https://www.researchgate.net/publication/44834498_Taxonomy_of_Corruption_in_Higher_Education/.

17. Yun A. Corruption in Uzbek higher education: detrimental impurity for the future, Norwegian institute International affairs. 2016, p. 12.

18. Osipian A. Higher Education Corruption in the World Media: Prevalence, Patterns, and Forms. 32nd Annual Conference of the Association for the Study of Higher Education, Louisville, KY, November 2007, p. 23.

19. O'zbekiston oliy ta'lim tizimi bo'yicha statistik ma'lumotlar ochiqlandi [Statistics on the higher education system of Uzbekistan have been released]. Available at: <https://kun.uz/news/2020/06/16/ozbekiston-oliy-talim-tizimi-boyicha-statistik-malumotlar-ochiqlandi/>.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2021/4

BOSH MUHARRIR:

Tashkulov Akbar Djurayevich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Salayev Nodirbek Saparbayevich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
professor

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Jurnal 24.11.2021-yilda tipografiyaga
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 23,52 b.t. Adadi: 100. Buyurtma: № 63.

TDYU tipografiyasida chop etildi.